

KIMYO DARSLARIDA NOSTANDART TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Nigmatov Zavqiddin Muyitdinovich

**Samarqand Davlat Veterinariya Meditsinasi, Chorvachilik va Biotexnologiyalar
Universiteti akademik litseyi kimyo fani o'qituvchisi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14022100>

Annotatsiya. Ushbu tezis "Kimyo" ta'limida nostandart topshiriqlardan foydalanish uning tarkibiy tuzilishi va mazmuni, ta'lim amaliyotiga joriy etish, dars jarayonida darsliklar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish bosqichlari o'rganilgan. O'quvchilarda nostandart topshiriqlardan kimyo darslarida foydalanish, interaktiv texnologiyalarga asoslangan ko'nikma va malakalarini egallaganlik darajalari va shu kabilarni e'tiborga olingan.

Kalit so'zlar: nostandart topshiriqlar, elektron resurs, tushuntirish-motivatsion, kognitiv, texnologik jadval, kreativ topshiriqlar.

Maktabda olingan bilim insonning kelgusi hayot yo'lini belgilaydi. Ko'pchilik bilimni baho bilan o'lchaydi. Ammo baho bilimni belgilovchi aniq mezon emas. U o'quvchilarni faollikka undovchi, rag'batlantiruvchi vosita, xolos. Har bir o'qituvchining o'z ish usuli, baholash metodi bor. Qaysidir o'qituvchi uchun baho bu — rag'bat yoki o'quvchini 45 daqiqa ushlab turish vositasi.

Nostandart topshiriqlar o'quvchilarning kompetensiyasini baholovchi o'quvchilarning bilim sifatini va tabiiy fanlar bo'yicha bilimlarini baholanadi. Hozirgi davrda maktab bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasi qanday bo'lishi lozimligi haqidagi qarashlar o'zgarib bormoqda. Maktab o'quvchilarining fanlar bo'yicha bilim va ko'nikmalarini shakllantirish bilan bir qatorda o'z bilimlarini turli hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish malakasini rivojlantirishni ta'minlash zarur. Kelajakda bu malakalar maktab bitiruvchisining jamiyat hayotida faol qatnashishiga, butun hayoti davomida bilimni oshirib borishga yordam beradi.

Tabiiy fanlar savodxonligi – shaxsning tabiiy fanlar rivoji va ularning yutuqlaridan foydalanish bilan bog'liq masalalarda faol fuqarolik pozitsiyasini egallash qobiliyati. Tadqiqotda baholanadigan tabiiy fanlar savodxonligi bo'yicha bilim va ko'nikmalar maktabdagi tabiiy fanlar, fizika (astronomiya elementlari bilan), biologiya, kimyo, geografiya fanlarini o'rgatilayotganda shakllanadi.

Tadqiqotning maqsadi ko'nikma va tushunchalarni kompleks tekshirishdan iborat. Asosiy e'tibor, taklif qilingan savollarga o'quvchilarning tabiiy fanlardan olgan bilimlari orqali javob berilishi, berilgan axborot asosida ilmiy jihatdan asoslangan xulosalar chiqarish qobiliyatiga qaratiladi. O'quvchilarga taqdim etilgan hayotiy vaziyatlar har bir insonning shaxsiy hayotida yuzaga keladigan dolzarb muammolar bilan bog'liq bo'ladi.

Biz ham ushbu maqolada aynan nostandart topshiriqlar o'quvchilarni tanqidiy tahlil, kreativ fikrlash, mustaqil izlanish, yaratuvchanlik qobiliyatlarini shakllantirishga hamda tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini oshirishga yo'naltirilgan topshiriqlar bilan tanishtirib kimyo faniga oid namunalarni havola etamiz.

1. Quyidagi genetik bog'lanishni amalga oshirish reaksiya tenglamalarini yozing?



Javob:

2. Quyidagi keltirilgan karikaturalarda qaysi elementlar tasvirlangan?



- A) Hg, W, Br, Ca
- B) Br, V, Zn, Ca
- C) Hg, Co, Zn, Ca
- D) I, W, Br, Ca



3. Quyida qaysi element haqidagi tasvirlar keltirilgan?

- A) Alyuminiy
- B) Mishyak
- C) Volfram
- D) Simob



4. Quyida qaysi element haqidagi tasvirlar keltirilgan?

- A) Fosfor
- B) Azot
- C) Kislород
- D) Uglерod

5. Tasvirda ko'rgan elementlarning atom massalari yig'indisini hisbolang?



5. Quyidagi kimyogar olimlarni ixtirolari bilan juftlab ko'rsating?

A

B

C



D


E



- 1- Radioaktivlikning asoschisi.
- 2- 1854 yil sun'iy yog' moddani sintez qilgan.

- 3- Dissosialanish nazariyasi asoschisi.
- 4- ($6,02 \cdot 10^{23}$) uning soni.
- 5- Hajmiy nisbatlar qonuni asoschisi.

6. Quyidagi tuz namunalari qaysi biri- $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$?



References:

1. Kimyoni o'qitishda zamonaviy texnologiyalar oq'uv qo'llanma/ Ixtiyarova G. Bekchanov D. Ahadov M. Toshkent- 2019.223-230 bet.
2. "Biz bilgan va bilmagan kimyo" M.Primqulov, R.Ziyayev, B.Akbarov, U.Haydarov "O'qituvchi" Nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent - 2011.
3. O'tkir zehinlilar kitobi. B.Akbarov, M.Primqulov. Toshkent "O'zbekiston"-2015.
4. Qiziqarli kimyo. T. D o'stmurodov, A. Aloviddinov Akademiya Toshkent 2005.